2

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

**“TASDIQLAYMAN”**
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn
instituti rektori
______________O.R.Salixov

2025-yil “___” ________
*Ro‘yxatga olindi: № БК-1.11*
*2025-yil “19” 08*

# LIBOSLARNI DIZAYN - LOYIHALASH

# FANI O‘QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – | San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 210 000 | – | San’at |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60210400 | – | Dizayn: libos va gazlamalar |

Сканировано с CamScanner

| Fan/modul kodi: LDL 1532 | | O'quv yili: 2025-2026 | Semestr: 3-4 | Kreditlar: 12 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili: O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari: 6/6 |
| 1 | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari** (soat) | **Mustaqil ta'lim** (soat) | **Jami yuklama** (soat) |
| | **Dizayn-loyihalash** | 180 | 180 | 360 |

2

**I.Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad –** talabalar milliy liboslar va milliy liboslar bichimlari asosida yangi liboslarni loyihasi ustida ish olib boradi, tabiat (o'simliklar,suv osti dunyosi), me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at kabi ilhom manbalaridan foydalangan holda kiyimlarni loyihalaydi. Bu amaliy mashg'ulotlar orqali talabaning xayoliy va ijodiy tafakkurini, tasavvurini, ijodkorligini va badiiy didini rivojlantirish; assotsiativ fikrlash, mantiqiy fikrlashiga erishiladi.

**Fanning vazifalari:** yangi to'plamni loyihalash jarayonida obrazli-assotsiativ fikrlashni rivojlantirish, yangi ko'nikmalar asosida loyihaga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish va aniqlash, ko'nikmalarini shakllantirish; yangi to'plam yaratishda to'g'ri qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; kiyimning obraz va konstruktiv tuzilishini mukammal bilish; badiiy va grafik vositalar yordamida liboslar to'plamini yaratishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish; ijodiy kollektsiyalarini yaratishda loyihalash usullarini o'zlashtirish.

**II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)**
**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi.**

**1-mavzu. Geolokatsiya – ilhom manbai sifatida*.** Ma'lum bir geografik joy, bog', arxitektura inshootlarini o'rganish. Loyiha doirasida uchun lokatsiyani arxitektura inshootlari, bog'lar, v.b. ijod manabi sifatida tanlash. Tanlangan ijod manbasi doirasida tadqiqot olib borish.

**2-mavzu. Loyiha konsepsiyasini aniqlash. Mudbord shakllantirish. Dastlabki qoralama eskizlar ustida ishlash.** Loyiha doirasida konsepsiya tanlash va qoralama eskizlar bajarish.

**3-mavzu. Referens tanlash. Tanlangan referenslar asosida liboslar faktura va teksturasi ustida ishlash. (Mato, ip, to'qima va boshqa materiallar asosida kichik o'lchamlarda izlanmalar olib**

Сканировано с CamScanner

**borish.)**

Liboslarni loyihalash jarayonida referens shakllantirish va liboslar faktura va teksturasi ustida ishlash, mato yordamida izlanmalar olib borish.

**4-mavzu. Tanlangan ijod manbasiga mos libos namunasini 1chi va 2chi modelini yakunlash.**

**5-mavzu. Musiqa yoki rassom asari ilhom manbai saifatida.** Turli xil davr va janrlarda ijod qilgan musiqa arboblari yoki rassomlar va ularning asarlarini o'rganish asosida tadqiqotlar olib borish.

**6-mavzu. Loyiha konsepsiyasini aniqlash. Mudbord shakllantirish. Dastlabki qoralama eskizlar ustida ishlash.** Loyiha doirasida konsepsiya tanlash va qoralama eskizlar bajarish.

**7-mavzu. Liboslar faktura va teksturasi ustida ishlash. Liboslar uchun matolar orqali tajribalar o'tqazish. (mato, ip, to'qima va boshqa materiallar asosida izlanmalar olib borish.)** Loyiha jarayonidan fotolavhalar yig'ish. (wokr in progress). Loyiha doirasida yaratilayotgan liboslarning faktura va teksturasi uchun izlanmalar olib borish.

**8-mavzu. Olib borilgan izlanishlar asosida tanlangan ijod manbasiga mos libos namunasini 1 va 2- modelini yakunlash.**
Liboslar fotosessiyasi ustida ishlash. Loyiha portfoliosini shakllantirish.

**9-mavzu. Etnik libos ilhom manbai sifatida.*** Ma'lum bir xalqning an'anaviy liboslari asosida liboslar kolleksiyasini yaratish uchun loyihaning tadqiqot va eskiz qismi.

Qadim zamonlardan insonlar o'zlariga oro berishga harakat qilib kelishgan. Biz bilamizki inson o'ziga asosan xar hil liboslar orqali oro beradi. Libos estetik k o'rinishga ega, ammo xar bir libos estetik vazifasidan tashqari milliy qadriyatlar, urf –odatlar va albatta gigienik xislatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Milliy an'anaviy kiyimlardagi etno elementlarni o'rganish (chizish, joylashu o'rganish, bezakni tashkil etuvchi elementlarni tahlil qilish, etno elementl tavsif berish, ularning ma'nosini o'rganish), bajarilish texnikasini ko'rsa Etno elementlarning zamonaviy kiyimlarda qo'llanilishini o'rganish (chi: joylashishini ko'rsatish, bezakni tashkil etuvchi elementlarga, etno elementl tavsif berish, ularning ma'nosini tushuntirish), bajarilish texnikasini ko'rsa Qiyosiy tahlil qilish.

**10-mavzu. Etnik liboslarni bichimi, matosi, bezagi, shakli, to'ldiruvchilarini o'rganish va tadqiq qilish.**

Mavzuni o'rganish jarayonida talaba milliylik va zamonaviy moda tendensiyalarini uyg'unlashtirish. Olib borilgan izlanishlar davomida o'ziga yaqin bo'lgan millat milliy liboslarini, liboslari tarixini mukammal o'rganib

Сканировано с CamScanner

va shu ko'nikmalari asosida yangicha bichimli, milliylik va yangi zamon nafasi ufurib turgan kolleksiya for-eskizlarini ishlab chiqish. Liboslarni to'plamga jamlashda tanlangan kontseptsiya muxim axamiyatga egadir. Kontseptsiyani moodboardda ketma-ketligini ishlab chiqish va to'plam ilhom manbasini tanlash, asoslash, jarayoni bajariladi.

**11-mavzu. Zamonaviy moda yo'nalishini o'rganish. Milliy libos asosida yaratilgan zamonaviy libos eskizlarining ishchi for-eskizlari ustida ishlash.**

Zamonaviy moda tendentsiyalarini o'rganish va (siluet, shakl, mahsulot uzunligi, rang kombinatsiyasi, tekstura, aksessuarlar va boshqalar) ko'ra tahlil o'tkazish. Eskizlarda tahlilni aks ettirish.

**12-mavzu. Etnik libos asosida yaratilgan zamonaviy liboslarning rangli eskizlar ustida ishlash.**

Liboslar siluet qatorlarini ishlab chiqish - zamonaviy moda yo'nalishini hisobga olgan holda shakl va siluet bo'yicha takliflar. Kompozitsion yechimni hisobga olgan holda kostyumdagi etnik elementlarning joylashuvini ishlab chiqish.

**13-mavzu. Tasdiqlangan eskiz asosida liboslarning 1,2,3-modelini maket matosidan tikish.** To'plamdagi liboslarning konstruksiyasini qurish va tikish jarayonidagi kamchiliklarni oldindan tekshirish maqsadida liboslarni avvalambor maket matosidan tikish.

**14-mavzu. Kolleksiyadagi kiyim modellari namunalarini asosiy matodan tikish. 1,2,3 model.**

To'plamdagi 1,2,3chi libos modellarini tayyorlab olingan maket andoza yordamida asosiy matodan bichish va tikish

**15-mavzu. Kolleksiyadagi kiyim modellarining badiiy bezagi, aksessuarlari ustida ishlash.**

Kolleksiyadagi kiyim modellarining badiiy bezagi, aksessuarlari ustida ishlash. To'plamning kiyim modellari fotosessiyasini to'g'ri va sifatli bajarish. Loyiha eskizlarini skeychbuk yoki moodboard formatida to'ldiring. Yakuniy nazoratga tayyorlash. Loyiha taqdimotini tashkil qilish.

***HSE Universiteti dasturi asosida ishlab chiqildi. (Jahon reytingida TOP 153 o'rinda Rossiya)***

**III.Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

**1.Geolokatsiya – ilhom manbai sifatida*.** Ma'lum bir geografik joy, bog', arxitektura inshootlarini o'rganish.

2.Loyiha uchun lokatsiya tanlash. Tanlangan ijod manbasi doirasida

Сканировано с CamScanner

tadqiqot olib borish.
3.Loyiha konsepsiyasini aniqlash. Mudbord shakllantirish. Dastlabki qoralama eskizlar ustida ishlash.
4.Referens tanlash. Tanlangan referenslar asosida liboslar faktura va teksturasi ustida ishlash. (Mato, ip, to'qima va boshqa materiallar asosida kichik o'lchamlarda izlanmalar olib borish.)
5.Loyihadagi liboslar shakli ustida tadqiqot olib borish. Loyiha jarayonidan fotolavhalar yig'ish. (work in progress).Libos modellari eskizlarini rangdagi yechimi ustida ishlash.
6. Tanlangan 1 va 2 modellarning rangli eskizlari asosida yakuniy namuna uchun ish jarayonini olib borish.

7. Tanlangan ijod manbasiga mos libos namunasini 1- modelini yakunlash.

8. Tanlangan ijod manbasiga mos libos namunasini 2- modelini yakunlash.

Liboslar fotosessiyasi ustida ishlash.

9. Musiqa yoki rassom asari ilhom manbai saifatida.Turli xil davr va janrlarda ijod qilgan musiqa arboblari yoki rassomlar va ularning asarlarini o'rganish.

10. Loyiha uchun ijodiy manba tanlash. (Musiqiy yoki rassom asari) Tanlangan ijod manbasi doirasida tadqiqot olib borish.

11. Loyiha konsepsiyasini aniqlash. Mudbord shakllantirish. Dastlabki qoralama eskizlar ustida ishlash.

12. Loyihadagi liboslar shakli ustida tadqiqot olib borish.

13. Liboslar faktura va teksturasi ustida ishlash. Liboslar uchun matolar orqali tajribalar o'tqazish. (mato, ip, to'qima va boshqa materiallar asosida izlanmalar olib borish.)
Loyiha jarayonidan fotolavhalar yig'ish. (wokr in progress)

14. Olib borilgan izlanishlar asosida tanlangan ijod manbasiga mos libos namunasini 1- modelini yakunlash.

15. Olib borilgan izlanishlar asosida tanlangan ijod manbasiga mos libos namunasini 2- modelini yakunlash.Liboslar fotosessiyasi ustida ishlash. Loyiha portfoliosini shakllantirish.

16. Etnik libos ilhom manbai sifatida.* Ma'lum bir xalqning an'anaviy liboslari asosida liboslar kolleksiyasini yaratish uchun loyihaning tadqiqot va eskiz qismi.

17. Etnik liboslarni tahlil qilish va o'rganish.

18. Etnik liboslarni bichimi, matosi, bezagi, shakli, to'ldiruvchilarini

Сканировано с CamScanner

o'rganish va tadqiq qilish.

19.Zamonaviy moda yo'nalishini o'rganish. Etnik libos asosida yaratilgan zamonaviy libos eskizlarining ishchi for-eskizlari ustida ishlash.

20. Etnik libos asosida yaratilgan zamonaviy liboslarning rangli eskizlar ustida ishlash.

21.Loyihadagi liboslar konstruksiyasini qurish.

22. Tasdiqlangan eskiz asosida liboslarning 1-modelini maket matosidan tikish.

23. Tasdiqlangan eskiz asosida liboslarning 2-modelini maket matosidan tikish.

24. Tasdiqlangan eskiz asosida liboslarning 3-modelini maket matosidan tikish.

25. Kolleksiya uchun taklif etilayotgan modellarga material tanlash va uni asoslash.
26. Kolleksiyadagi kiyim modellari namunalarini asosiy matodan tikish. 1- model.
27. Kolleksiyadagi kiyim modellari namunalarini asosiy matodan tikish. 2- model.
28. Kolleksiyadagi kiyim modellari namunalarini asosiy matodan tikish. 3- model.
29. Kolleksiyadagi kiyim modellarining badiiy bezagi, aksessuarlari ustida ishlash.
30. Kolleksiyaning fotosessiyasi ustida ishlash.

***HSE Universiteti dasturi asosida ishlab chiqildi. (Jahon reytingida TOP 153 o'rinda Rossiya)***

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

*Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:*

1."Arxitekturani ijodiy ilhom manbai sifatida" taxlil etish va o'rganish, arxitektura ijod manbaini tanlash
2.Dastlabki qoralama eskizlar ustida ishlash
3.Liboslarni rangli kombinasiyasi va boshqa elementlarni xisobga olgan xolda, libos modellari eskizlarni rangdagi yechimi ustida ishlash
4.Musiqa – ijodiy ilhom manbasi sifatida tahlil etish va o'rganish, arxitektura ijod manbasini tanlash. Dastlabki qoralama eskizlar ustida ishlash.
5. Texnik eskizlar ustida ishlash. Kolleksiyaning tugallangan modellarini

Сканировано с CamScanner

shakllantirish, "Arxitektura – ijod manbai" mavzusiga oid kollaj namunalari

6. "Musiqa ijodiy ilhom manbai" mavzusidagi loyihani yakunlash.
7. Liboslarda rang kombinatsiyasi va boshqa echimlarni hisobga olgan holda, libos modellari eskizlarini yaratish. Loyihani yakunlash.
8. "Rassom asari ijodiy ilhom manbai" mavzusidagi loyihani yakunlash.
9. Liboslarda rang kombinatsiyasi va boshqa echimlarni hisobga olgan holda, libos modellari eskizlarini yaratish. Loyihani yakunlash.
10. Ijodiy ilhom manbai asosida, kiyim modellari to'plami ustida ishlash. Ushbu loyiha uchun to'plam kontseptsiyasi, ilhom manbai va g'oyalarni tanlash va asoslash, to'plamdagi kiyim modellarini iste'mol bozorida o'rni va ahamiyatini ishlab chiqish.
11. To'plamning kiyim modellari eskizlarini ishlab chiqish. Zamonaviy kiyim modellari to'plami uchun kiyim modellarining yakuniy eskizlarini ishlash.
12. To'plam libos modellari ustida ishlash. Liboslarning maketlari bo'yicha ishlarni yakunlang. Tikuv texnologiyasi ustida ishlash. To'plam kiyimlarini tikishni tugating.
13. To'plamning kiyim modellari badiiy dizaynini ishlab chiqish. Badiiy obrazni yaratish uchun to'plamning kiyim modellariga yakuniy ishlov berish. Fotosessiyani sifatli bajarish. Loyihaning taqdimotgatayyorlash.
14. Loyihani taqdimotiga tayyorlash. Loyiha eskizlarini skeychbuk yoki moodboard formatida to'ldiring. Yakuniy nazoratga tayyorlash. Loyiha taqdimotini tashkil qilish.
15. Liboslarda rang kombinatsiyasi va boshqa echimlarni hisobga olgan holda, libos modellari eskizlarini yaratish. Loyihani yakunlash.
16.Milliy an'anaviy liboslardagi bezaklarni tahlil qilish va zamonaviy liboslarda etnik bezaklardan foydalanish.
Milliy an'anaviy kiyimlardagi etno elementlarni o'rganish (chizish, joylashuvini o'rganish, bezakni tashkil etuvchi elementlarni tahlil qilish, etno elementlarga tavsif berish, ularning ma'nosini o'rganish), bajarilish texnikasini ko'rsatish.
17. Etno elementlarning zamonaviy kiyimlarda qo'llanilishini o'rganish (chizish, joylashishini ko'rsatish, bezakni tashkil etuvchi elementlarga, etno elementlarga tavsif berish, ularning ma'nosini tushuntirish), bajarilish texnikasini ko'rsatish. Qiyosiy tahlil qiling.
18.To'plam kontseptsiyasini ishlab chiqish. Ushbu loyiha uchun moodboard ishlab chiqish va to'plam ilhom manbasini tanlash va asoslash, ijro g'oyasini tanlash va asoslash, iste'mol bozorida to'plamdagi

Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| | kiyim modellarini o'rnini o'rganish.<br>19. Kostyumdagi etnik elementlarning joylashishiga ko'ra shaklini, modellar siluetini, kompozitsion echimni asoslash. Liboslar siluet qatorlarini ishlab chiqish - zamonaviy moda yo'nalishini hisobga olgan holda shakl va siluet bo'yicha takliflar. Kompozitsion echimni hisobga olgan holda kostyumdagi etnik elementlarning joylashuvini ishlab chiqish.<br>20. Konfeksion xaritani ishlab chiqish. Asosiy modellar uchun Konfeksion xaritalarini tuzish.<br>21. Mato plastikasini hisobga olgan holda, libos balansini tekshirish va sxemalarini ishlab chiqing. Ish jarayonini fotoda taqdim etish. Ishlov berish ketma-ketligini ko'rsatgan holda tikuv texnologiyasini asoslash.<br>22. Liboslarning dekorativ texnikasi va uni bajarilishini asoslash.<br>Har bir modelning mato xususiyatlarini hisobga olgan holda dekorativ texnikasini bajarish.<br>23. Milliy, an'anaviy liboslar to'plamning 1-modelini tikish.<br>To'plamning 1-modelini tikishda xatolarni aniqlash va tuzatish. Modelni yakunlash. Fotosessiya uchun modelni tayyorlash.<br>24. Milliy, an'anaviy liboslar to'plamning 2-modelini tikish.<br>To'plamning 2-modelini tikishda xatolarni aniqlash va tuzatish. Modelni yakunlash. Fotosessiya uchun modelni tayyorlash.<br>25. Milliy, an'anaviy liboslar to'plamning 3-modelini tikish.<br>To'plamning 3-modelini tikishda xatolarni aniqlash va tuzatish. Modelni yakunlash. Fotosessiya uchun modelni tayyorlash.<br>26. Milliy, an'anaviy liboslar to'plam modellarining badiiy qiyofasi ustida ishlash.<br>27. Tanlangan mavzu asosida modellarning obrazi (soch turmagi, aksessuarlari, makiyaji) ustida ishlash. Fotosessiyaga tayyorlash.<br>28. Portfolio ustida ishlash.<br>29. To'plamning kiyim modellari fotosessiyasini to'g'ri va sifatli bajarish.<br>30. Yakuniy nazoratga tayyorgarlik. Loyihani yakuniy nazoratga tayyorlash. To'plam taqdimotini bajarish.<br><br>**Fan bo'yicha kurs ishi**<br>Kurs ishi o'quv rejada ko'rsatilmagan. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>"Dizayn-loyihalash" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida ***talaba:***<br>• konsepsiyani asoslash; |

Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| | • loyihalash bosqichlarini bilish va ishni bajarish uchun ularga rioya qilish;<br>• milliy, an'anaviy va zamonaviy liboslarni kompozitsion echimini hisobga olgan holda tahlil qila olish;<br>• moda tendentsiyalari, uslub va yo'nalishlarini tahlil qilish va ulardan loyiha faoliyatida foydalanish;<br>• kostyum va obrazni grafik tasvirlash usullarini egallash;<br>• libosning konstruktiv echismida matolar xossalaridan to'g'ri foydalana olish;<br>• to'plamni shakllantirishda naqshlarni uyg'unlashtirish vositalarini bilish;<br>• loyihalashda bichim shakllarning uyg'unligi konstruktiv tahlil qila olish;<br>• ilhom manbasini tahlil qila olish, olingan natijalar va bilimlarni loyihalash jarayonida qo'llay olish;<br>• loyihani taqdim bajarish va uni asoslash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4 | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• tayanch ma'ruza-taqdimotlar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, oraliq nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni taqdim etish, asoslash va uni himoya qilish. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. F.Z.Ataxanova "Dizayn-loyihalash", OO'Yu talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2018. - 368 b.<br>2. X.X.Komilova, Vohidova U.A. "Loyihalash", OO'Yu uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2017. - 188 b.<br>3. Fashion Design (Portfolio (Laurence King)): Sue Jenkyn Jones: 272 pages; Publisher: Laurence King Publishing; 3 edition (24 Mar. 2011).<br>4. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. "Дизайн костюма", Ростов -на - Дону Феникс 2000 г.481 стр.<br>5.Торебаев Б.П., Ж.У.Мырхалыков "Орнаментальная композиция в |

24.10.25

<table>
<tr><td></td><td>дизайне швейных изделий" уч. пособие. Издательский центр ЮКГУ им.М.Ауезова, г.Шымкент.-134 стр.<br><br>Qo'shimcha adabiyotlar<br><br>1. Садикова Н. "Ўзбек миллий кийимлари", Ўкув кўлланма, Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006 й.-191 б.<br>2. Абдуллаев Т.А. Одежда узбеков: (XIX – начало XXв.). – Т: «Фан», 1978 г.<br>3. Девидсон Крейго К. Как читат архитектуру. Интенсивный курс по архитектурным стилям. – М: «РИПОР КЛАССИК».<br>4. Дешарн Р., Нере Ж. Салвадор Дали 1904 – 1989. Живопис. – М: «Арт – Родник», 2004 г.<br>5. Захарова И.В. Казахская натсионалная одежда (XIX-XX): монография. – Алма Ата: « Наука», 1964 г.<br>6. Нур А. Живопись. – «Тошкент», 2019 г.<br>7. Собрание Российского этнографического музея (Санкт – Петербург, Россия). – Т: «СИЛК РОАД МЕДИА», 2020 г.<br>8. Стелмашенко В.И. Материалы для одежды и конфексионирование: учебник. – М: «Академия», 2010 г.<br>9. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма. Самарканд (2-я половина XIX – начало XXв.). – М: «Наука», 1982 г.<br>10.Fashion Design (Portfolio (Laurence King)): Sue Jenkyn Jones: 272 pages; Publisher: Laurence King Publishing; 3 edition (24 Mar. 2011).<br>Internet saytlari<br>1. www. Ziyonet. uz<br>2. www. edu. Uz<br>3. www.sarafan.ru<br>4. www.ocinka.ru<br>5. www.textile-press. ru<br>6. www.textilegroup.ru<br>7. www.mrdi.uz</td></tr>
<tr><td>7</td><td>Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025 yil 29.08 № 1 sonli qarori bilan tasdiqlangan.</td></tr>
<tr><td>8</td><td>Fan/modul uchun ma'sullar:<br>Z.S.Umarova- MRDI, "Libos dizayni" kafedrasi o'qituvchisi</td></tr>
<tr><td>9</td><td>Taqrizchilar:<br>U.Raxmatullayeva -TTESI, "Moda va dizayn" kafedrasi professori, f.f.n.<br><br>U.M.Xodjayeva - MRDI, "Libos dizayni" kafedrasi dotsenti</td></tr>
</table>

Сканировано с CamScanner